



## Issues of forming the category of tolerance in a political context

Maftuna RAJABOVA<sup>1</sup>

Uzbekistan State University of World Languages

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received September 2024

Received in revised form

15 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 December 2024

### ABSTRACT

This article provides a scientific analysis of the origin of the category of Tolerance and its political and legal foundations. The issue of the factor of tolerance and its formation in the system of international relations is considered on a systematic basis.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp355-360>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

**Keywords:**

tolerance,  
moral principle,  
new communication  
mechanism,  
patience,  
religious tolerance,  
Treaty of Westphalia,  
political context,  
UNESCO,  
declaration,  
international relations.

## “Tolerantlik” kategoriyasini siyosiy kontekstda shakllantirish masalalari

### АННОТАЦИЯ

**Казит сўзлар:**

tolerantlik,  
axloqiy tamoyil,  
yangi muloqot  
mexanizmi,  
sabr,  
diniy bag’rikenglik,  
Vestfaliya shartnomasi,  
siyosiy kontekst,  
YUNESKO,  
deklaratsiya,  
xalqaro munosabatlar.

Mazkur maqolada “tolerantlik” kategoriyasining kelib chiqishi va uning siyosiy-huquqiy asoslari ilmiy tahlil etilgan. Tolerantlik omili va uni xalqaro munosabatlar tizimida shakllantirish masalalari tizimli asosda ko’rib chiqilgan.

<sup>1</sup> PhD Candidate, Uzbekistan State University of World Languages. E-mail: rajabovamaftuna@gmail.com

# Вопросы формирования категории "толерантность" в политическом контексте

## АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

толерантность,  
моральный принцип,  
новый  
коммуникационный  
механизм,  
терпение,  
религиозная  
толерантность,  
Вестфальский договор,  
политический контекст,  
ЮНЕСКО,  
декларация,  
международные  
отношения.

В данной статье научно анализируется происхождение категории «толерантность» и ее политико-правовые основы. На системной основе рассматривались вопросы фактора толерантности и его формирования в системе международных отношений.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan davrda o'zaro mehr-oqibat, ishonch, hamkorlik va tinchlikka asoslangan tolerantlik omilining o'rni va roli nihoyatda kattadir. Tolerantlik jamiyatning siyosiy madaniyati, fuqarolik munosabatlari va barqarorlik darajalarini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Hozirgi kunda tolerantlik kategoriysi va uni turli xil sohalar, xususan siyosiy fanlar kesimida shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy yo'nalishga aylanib bormoqda.

Umumiyl ma'noda tolerantlik – bu boshqa shaxsga ham, boshqa madaniy an'anaga ham hurmat bilan munosabatda bo'lishdir. Bundan tashqari, tolerantlik o'zgani o'ziga teng qadriyat sifatida e'tirof etishni, boshqasining mavjudligiga xayrixoh munosabatda bo'lishni va uning fikrini hurmat qilishni, muloqotga tayyorlikni, haqiqatga olib boradigan turli yo'llar mavjudligini tushunishni anglatadi. Tolerantlik insonning boshqa individlar va tizimlar bilan muloqot qilish hamda o'zaro munosabatda bo'lishga ochiqligi sifatida namoyon bo'ladi [1].

Biroq, tolerantlik hali o'rnatalgan umuminsoniy qadriyat emas. Plyuralizmning zamonaviy davri o'z-o'zidan tolerantlikka ta'sir ko'rsatgani yo'q. O'z an'analarini rad etish nafaqat erkinlikka, balki boshqa tavsiflovchi axloqqa bo'y sunishga olib keladi. Jamiyat zo'ravonlikgacha bo'lgan har qanday xatti-harakatga befarqlik va liberal munosabatda emas, balki har bir xalq madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini hurmat qilish va erkinlik bilan cheklangan chegaralarda so'z erkinligi kafolatiga asoslangan yangi muloqot mexanizmiga muhtoj. Buni amalga oshirish turli madaniy an'analar yutuqlarini ro'yobga chiqarish, tinchlikparvarlik va butun birlikka qaratilgan alohida xalqlar va shaxslar tajribasini sinchkovlik bilan o'rganish hamda tolerantlikka asoslangan bilim tizimini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Tolerantlik kategoriyasiga oid ilmiy-falsafiy konsepsiyalarni tahlil qilganda siyosiy omilni yetakchi o'ringa chiqishini e'tirof etish lozim. Chunki tolerantlik tasodify kechadigan to'da yoki olomonning xohish-irodasi, his-tuyg'ularining ifodasi emas, balki u etnoslarning, millatlarning tub manfaatlarini ifoda etadigan ijtimoiy-siyosiy hodisadir. Har qanday ijtimoiy hodisa pirovard natijada siyosiy tizim, davlat hayotiga borib taqaladi

va siyosiy boshqaruvning strategik maqsadlariga ta'sir etadi. Ammo, tolerantlikka faqat siyosiy voqelik sifatida yondashish yetarli emas. Tolerantlik ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida keng yondashishni taqozo etadi.

Tolerantlik kategoriyasi ijtimoiy fanlarda noaniq va nihoyatda murakkab, ko'p o'lchovli tushuncha bo'lib, tadqiqotchilar orasida bu borada to'liq bir aniqlik mavjud emas. Tolerantlikka axloqiy tamoyil, xulq-atvor modeli, ijtimoiy ko'rinishlarda individual yoki ijtimoiy munosabat shakli va boshqalar sifatida qaraladi[2]. Qarashlar turlicha bo'lmasin, tolerantlik tushunchasini aniqlash uchun siyosiy fikr tarixi, shuningdek, ushbu g'oyani himoya qilishdagi o'zgarishlar va davomiylikni o'rganish hamda bag'rikenglik jarayonini kuzatish lozim.

Tolerantlik tushunchasining vujudga kelishi o'rta asrlarga borib taqaladi. Larussa lug'atiga ko'ra, tolerance so'zi 1361-yilda ishlatilib o'tilgan. Ingiliz etimologiyasining Oxford lug'atiga asosan "tolerance" tushunchasini XV asrga, "tolerantion" atamasini XVI asrga taalluqli ekanligini bildiradi. Agar XV asrda bu atama "chidamlilik", "og'riqqa chidamlilik qobiliyati" degan ma'nolarni bildirsa, XVI asrga kelib, "ijozat", "cheklov", "tiyilish" degan ma'nolarni bildiradi [3].

"Tolerantlik" atamasi ilmiy muomalaga XX asr o'rtalarida ingliz immunolog olimi Piter Brayan Medavar tomonidan kiritilgan bo'lib, mazkur tushuncha organizm immun tizimining unga ko'chirib o'tkazilgan boshqacha hujayralarga nisbatan toqatliligini ifodalash uchun qo'llanilgan [4]. Keyinchalik, ushbu tushuncha boshka fanlarda ham faol ishlatila boshlandi.

Tolerantlikning birinchi tarixiy-siyosiy shakli diniy bag'rikenglik bo'lib, uning tamoyili Vestfaliya shartnomasida (1648 yil) o'rnatilgan. Bu shartnoma butun Germaniya bo'y lab lyuteranlar, kalvinistlar va katoliklarning huquqlarini tenglashtirish ma'nosida dinlarning tengligi uchun asos yaratdi [5].

XIX asrda "sabr" fe'li bir nechta ma'nolarni bildirgan: chidamoq, azoblanmoq, turmoq, nimanidir kutmoq, shoshilmaslik. Ko'p ma'nolilikka qaramay, sabr kategoriyasi ma'nolar ichida eng possiv rolni o'ynaydi. Etika lug'atida A.A. Guseynova va I.S.Kona tomonidan sabr ma'nosiga aniqlik kiritiladi: "Sabr – boshqa insonlarning xatti-harakati, odatlarini, dunyoqarashlari va fikrlashini xarakterlaydigan axloqiy fazilatdir hamda bosim o'tkazilmagan holatda tinchlik va kelishuvga tushuntirishlar orqali erishishdir. Mazkur so'z aniqligining so'z yutug'i shundaki, uning asosi o'zga millat, xalqlar va dinlarga nisbatan bag'rikeng munosabatidadir. D.N.Ushakova nashri ostida chop etilgan izohli lug'atga asosan "tolerantlik" so'zi – fransuz tilida "tolerant" – sabrli ma'nosida keladi. V.I.Dalya lug'atiga asosan "sabr" atamasi o'ziga xos xususiyat bo'lib, kimgadir kichik ko'ngillik, kechirimlilik bilan chidashdir. Ko'plab zamonaviy lug'atlar ham shunday izoh beradi. Masalan, A.M.Proxorova nashri ostida chop etilgan "Sovet davri ensiklopedik lug'ati"da "tolerantlik" – bu o'zgalarning fikrlari, diniy qarashlari, xulq-atvoriga chidashdir. "Zamonaviy chet tili so'zlari lug'ati"da "tolerantlik" tushunchasi "sabr, kimgadir nisbatan yaxshi munosabatdir". A.P.Sadoxin tolerantlik tushunchasi millat va elatlarning tarixiy tajribasidan kelib chiqib, turli xil qarash va munosabatlarni bildirishini ta'kidlab o'tadi [6].

Bag'rikenglik kategoriyasi turli kontekstlarda qo'llanilishiga qaramay, haligacha uning to'liq mazmuni mavhumligicha qolmoqda. Zamonaviy paradigmada tolerantlik demokratik qadriyat va axloq kodeksi sifatida ko'rsatilmoqda. Diniy nuqtayi nazardan tolerantlik – bu boshqalarning e'tiqodlariga nisbatan bag'rikeng va hurmatli munosabatda bo'lish va asosiy e'tibor dogmatizmga qaratiladi. Siyosiy kontekstda esa asosiy e'tibor boshqalarning nimaga ishonishi yoki o'ylashiga emas, balki odamlar nima

qilayotganidan iborat. Dinlararo munozaralarda va siyosatda shakllanadigan bag'rikenglik tushunchalarining bir umumi y xususiyati bor: "o'zgalar" tomonidan amalga oshirilgan harakatlar motivlarini tushunish juda oson, deb ishoniladi va bunday tushunish ("empatiya") tolerantlikning asosiy shartidir [7].

Ahamiyati o'ta yuqori ekaniga qaramay, bag'rikenglik mavzusi hozirgi davrda yuzaki qaragandagina ochiq, ba'zilarning fikricha esa, hatto hal etilgan bo'lib ko'rindi. Biroq bizningcha, bunday mulohazalar noo'rin. 1965 yilda Geroert Markuze "Sof bag'rikenglikning tanqidi" nomli kitobida toqatlilik, bag'rikenglikni tanqid ostiga olishga uringan edi. Xususan, olimning fikriga ko'ra, toqatlilik repressiv xususiyatga ega. Jamiyatni maqbul, yaxshi tomonga o'zgartirishning eng optimal yo'li, bu mutlaq toqatsizlidir. Shu ma'noda, jahon ilmiy adabiyotida mazkur muammo bo'yicha babs-munozaralar hali xamon qizg'in davom etmoqda [8].

Bag'rikenglik tamoyiliga nisbatan qo'llaniladigan yondashuvlarning tahlilidan ma'lum bo'ladi-ki, ushbu tushunchaning mazmuni bo'yicha olim va tadqiqotchilar orasida yakdillik mavjud emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirda uning mohiyatini tadqiq etishga qaratilgan bir nechta zamonaviy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, shartli ravishda, tolerantlik fenomenining mazmunini ochib berishga qaratilgan ratsional, qadriyatli hamda subyektiv yondashuvlar shakllangan. Bag'rikenglikning ratsional asoslarga ega bo'lgan birlamchi talqinlariga J.Lokkning o'zgalarning qarashlari va e'tiqodlarini tan olishga doir fikrlari, J.St.Millning turli xil hayot tarzlarining yonma-yon mavjud bo'lishining tabiiyligi haqidagi konsepsiysi misol bo'la oladi. Mazkur mumtoz faylasuflarining qarashlari zamonaviy G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan muayan darajada rivojlantirilmoqda. Jumladan, P.Nikolson bag'rikenglikning ratsional talqini chegaralaridan tashqariga chiqish va ushbu tamoyilni alohida mustaqil foydali ma'naviy ne'mat sifatida olib qarash mumkinligiga urg'u beradi. S.Mendusning fikricha esa, bag'rikenglik paradoksal hodisa, chunki individ tomonidan uning amalga oshirilishi o'ta murakkabdir. Yana bir olim A.Makintayr bag'rikenglikni umumi majburiy qadriyat ekaniga shubha bilan qaraydi, uning talqiniga ko'ra, zamonaviy madaniyatda ma'naviy-axloqiy hamjihatlikka erishishning ratsional kafolatlari mavjud emas [9].

Tolerantlik kategoriyasini nazariy va amaliy qo'llashda 1995-yil 16 noyabrda Parijda YUNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi"da berilgan ta'rifga tayanilmoqda. Ushbu hujjatda bunday deyilgan:

Tolerantlik – bizning dunyomizdagи turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Bag'rikenglik – turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Tolerantlik – tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga elituvchidir.

Tolerantlik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Tolerantlik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham tolerantlik ana shu asosiy qadriyatlariga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim [10].

Tolerantlik tamoyillari asosiy huquq va erkinliklar sifatida huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan va xalqaro deklaratsiyalarda e'lon qilingan. Bu yerda asosiy hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hisoblanadi[11]. Yevropa Kengashi doirasida Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasi amal qilmoqda. Konvensiyaning 12-Protokoli kuchga kirdi, uni ratifikatsiya qilgan davlatlarga hech qanday kamshitishlarsiz har qanday huquqlarni kafolatlash majburiyati yuklandi va majburiyatlarni bajarmagan taqdirda jazo mexanizmi nazarda tutiladi. “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi” tolerantlik sohasidagi eng muhim xalqaro hujjat bo‘lib, u barcha xalqlarning tinchligi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy rivojlanishi uchun zarurdir.

### XULOSA

Jahon miqyosida xalqaro aloqalar kengayib, murakkablashib borayotgan davrda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida bag‘rikenglik omilini rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Siyosiy kontekesda tolerantlik turli e’tiqod, qarashlar va madaniyatlarning birgalikda yashashini qabul qilish hamda hurmat qilish tamoyillarini anglatadi. Jamiyat va davlatda sog‘lom tolerant muhitning mavjudligi siyosiy erkinlik, fuqarolarning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va tanlash huquqining kafolatlanishi, plyuralizmning shakllanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlanishi va siyosiy barqarorlikning ta‘minlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, tolerantlik madaniyati jamiyatda turli xil ijtimoiy ziddiyatlarni kamaytiradi va siyosiy konfilektlarni tinch yo‘l bilan hal qilish imkonini beradi. Shuningdek, tolerantlik inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi tenglikni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, globalizatsiya jarayonida tolerantlik omili xalqaro munosabatlarni barqarorlashtiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баева Л.В. Толерантность: идея, образы, персоналии.: Доктор философских наук. монография. –Астрахань: Издательский дом “Астраханский университет”. 2009. –С. 5-6.
2. Гулиев М.А. Политическая толерантность в урегулировании этнических конфликтов.: Кандидата политических наук. Дисс. Автореф. – Ростов-на-Дону, 2003. – С. 14.
3. Маркова Е.А. Толерантность в политическом процессе (региональный аспект).: Кандидата политических наук. Дисс – Чита, 2007. –С. 12.
4. Меньшикова Н.С. Феномен “толерантность”, сущностная характеристика и правовые основы формирования культуры толерантности в эпоху мультикультурализма. // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России № 3 (67) 2015. –С. 87.
5. Tomas Saulius. What is “tolerance” and “tolerance education”? philosophic perspectives. // Ugdymas kuno cultura sportas Nr. № 2(89); 2013; – Litva. –P. 56.
6. Муллагалиева Л.К. Язык толерантности.: Доктор педагогических наук. Монографии. – Уфа. 2012. –С. 10-11.
7. E’zoza Karimova O‘zbek tolerantligining o‘ziga xos xususiyatlari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo’llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. B. 5.
8. Xamimov M.I. YUNESKO faoliyatida diniy bag‘rikenglik tamoyillari. Falsafa fan. Dokt. diss. – Тошкент: 2009. –B.42.
9. Кушаев У.Р. Жаҳон динларида бағрикенглик ғояларининг уйғунлиги. Фалсафа фанлари бўйича фан докт. дисс. – Тошкент: 2017. –Б. 19.

10. Declaration of Principles on Tolerance. [Elektron manba:]  
<https://www.oas.org/dil/1995%20Declaration%20of%20Principles%20on%20Tolerance%20UNESCO.pdf>

11. Saidov S.Sh. "Human Capital" as the Basis for the Development of Society. // Journal of Media & Management. 2020, Volume 2(2). – P. 17-21.